ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

KAZAKOVA GULASAL KURALOVNA

MUSTAQILLIK DAVRI ESSELARIDA SHOIR VA YOZUVCHILAR SIYMOSI BADIIY TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

CamScanner

UO'K: 821.512.133'06.09-4

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Kazakova Gulasal Kuralovna
Mustaqillik davri esselarida shoir va yozuvchilar siymosi badiiy talqini 3

Kazakova Gulasal Kuralovna
Literary interpretation of poets' and writers' images in essays from the independence period 25

Казакова Гуласал Кураловна
Художественная интерпретация образов поэтов и писателей в эссеистике периода независимости 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published works
Список опубликованных работ 51

CamScanner

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

KAZAKOVA GULASAL KURALOVNA

MUSTAQILLIK DAVRI ESSELARIDA SHOIR VA YOZUVCHILAR SIYMOSI BADIIY TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

CamScanner

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4802 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qahramonov Qurdosh Yalgashevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Xabibovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qo‘chqorova Marhabo Xudayberganovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Samarqand davlat universiteti

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “14” may soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100. Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “2” may kuni tarqatildi
(2025-yil “02” 05 dagi 01-raqamli reestr bayonnomasi)

H. A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q. U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N. A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida epik tur va uning janrlari, jumladan, esse yo'nalishida yaratilayotgan asarlarning davrga monand yangicha talqinlari, esselarning o'ziga xosligi masalalari keng miqyosda o'rganilmoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslikda essenavislikning umumnazariy muammolari yangicha tahlil va tadqiq etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Essenavis ijodkor o'z zamonasining kishisi, muhitning tipik vakili sifatida davrning yetakchi tamoyillarini o'z ijodida namoyon etishi, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishi yetakchi konsepsiya sifatida belgilanganligi kuzatilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligining mukammal ilmiy namunalarida ijodkorning poetik olami shaxs konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda syujet va kompozitsiya, konflikt va xarakter, badiiy asar tili va uslubi kabi ko'plab komponentlarning poetik mahorat nuqtayi nazaridan o'rganilganini kuzatish mumkin. Bundagi eng muhim jihat esse poetikasidagi xarakter tasviri, uslubiy individuallik hamda ularda aks etgan ijodkor siymosini anglash zarurligiga e'tiborning ortganligidadir. Ijodkor poetikasini o'rganish, asar yaratilishida yozuvchi ijod laboratoriyasini tahlil qilish dolzarb muammolardan biriga aylandi.

O'zbek adabiyotshunosligida bu janrga oid tadqiqotlarda esselarni mazmun va mohiyatiga ko'ra falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-publitsistik va xotira-esselarga ajratib o'rganilishi nazarda tutilar ekan, istiqlol davrida yaratilgan esselarda tarixiy-biografik, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmun ustuvorligiga e'tibor qaratilganini ta'kidlash joiz. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olishda, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"[1]. Zero, kelajakka intilish o'tmishga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. Hozirgi adabiy jarayon va publitsistika taraqqiyotida ham esse janri imkoniyatlaridan foydalangan holda yozuvchi va shoirlarning ijodkor sifatidagi o'ziga xos olami, turli davr ma'naviy-ruhiy zarbalari orqasida qolib ketgan shaxs sifatidagi kamoloti, fe'l-atvoridagi o'ziga xoslik ijodining bir qismi sifatida tahlilga tortilishi dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish

[1] Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya to'plamidan. – Toshkent, 2018. 7-avgust.

CamScanner

va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasida hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida esse va uning taraqqiyoti, janr sifatidagi o'ziga xos xususiyatlar T.M.Stepanova, A.A.Tertichniy, Sh.Sent-Byov, R.Uellik, O.Uorren, M.M.Baxtin, A.Kamyu, G.N.Pospelov, L.Ginzburg, Yu.Borev, M.Epshteyn, E.Ya.Fesenko singari tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida monografik o'rganilgan[2].

Badiiy adabiyotning poetik xususiyatlari, ijodiy metod va shaxs konsepsiyasi kabi masalalarga O.Sharafiddinov[3] oydinlik kiritgan bo'lsa, M.Qo'shjonov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, N.Rahimjonov, B.Karimov, Q.Yo'ldoshev, Q.Qahramonov, M.Qo'chqorova, A.Ulug'ov kabi olimlar tomonidan esse tabiatining o'ziga xosligi, janr xususiyati, o'zbek adabiyotida janrning uslubiy jihatdan farqlanishi, ijodkor fenomeni va poetik tahlili xususida ilmiy-nazariy xulosalar berilgan.

Mustaqillik yillarida esse janrining genezisi, taraqqiyot tendensiyalari, ijodkorlar va tanqidchi olimlar faoliyatidagi esse janriga xos yuksalishlar, adabiy-tanqidiy yo'nalishdagi janr sifatidagi e'tirofi borasida ilmiy izlanishlar olib borildi[4].

---

[2] Степанова Т.М. Литературная критика и публицистика русского зарубежья. Мотивы. Тенденции. Имена. 2-е изд. переработанное и дополненное. – Майкоп: ЭлИТ, 2016; Тертычный А.А. Интернет-публицистика: жанровый профиль. Ученые записки Казанского университета. Гуманитарные науки. Том 156. – М.: 2014; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – М.: Художественная литература, 1970; Уеллик Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978; Фесенко Э.Я. Теория литературы. – А.: Поморский государственный университет, 2001; Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Камю А. Творчество и свобода. Статьи, эссе и записные книжки. – М.: Радуга, 1990; Поспелов Г.Н. Введение в литературоведение. – М.: Просвещение, 1983; Гинзбург Л.Я. Записные книжки. Воспоминания. Эссе. – СПб.: Искусство, 2002; Борев Ю.Б. Эстетика. – М.: Наука, 1987; Эпштейн М.Н. Парадоксы новизны: О литературном развитии XIX-XX веков. – М.: Советский писатель, 1988.

[3] Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004; Улуғов А. Адабиётшуносник назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017; Каримов Н. XX аср адабиёт манзаралари. 1-китоб. – Тошкент: Заркалам, 2008; Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012; Раҳимжонов Н. Адабий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008; Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилоларн. – Тошкент: Фан, 1991; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007; Умуров Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Каримов Б. Адабиёт методологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011; Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Аҳмедова Ш. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент: Фан, 2008; Расулов А. Илми ғарибани кўмсаб. – Тошкент: Маънавият, 1998; Йўлдошев К. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007; Каримов Х. Истиқлол даври насри. – Тошкент: Заркалам, 2007.

[4] Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (Насрий асарлари мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998; Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Полуанов Б.Н. Қорақалпоқ адабиётида эссе жанри: Филол. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Нукус, 2002; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол. фан.

O‘zbek adabiyotshunosligida ushbu mavzu qizg‘in o‘rganilayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, o‘zbek adabiyotida XX asr 60-yillarida ilk namunalari shakllangan esse janri taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda esselarda ijodkor siymosi, shaxs sifatidagi kamoloti, yozuvchi xarakter xususiyatining yaratilgan asarda aks etishi talqini yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu boisdan, adabiy-tanqidiy va xotira-esselarda ijodkor siymosini anglash, ijod laboratoriyasiga oid qarashlar tahlilga tortilib, esse janrining epik tur va badiiy-publitsistika taraqqiyotidagi munosib o‘rni asoslab o‘tildi. Ushbu tadqiqotni ijodkor siymosini ochishga yo‘naltirilgan dastlabki izlanishlardan biri sifatida qarash mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi so‘nggi yillarda yaratilgan esselarda ijodkor shaxs siymosi, jumladan, adiblar va shoirlar obrazining o‘ziga xosligi hamda hayotiy va badiiy asoslarini o‘rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarni A.Ko‘chimov, X.Davron, M. Ismoil, A.A’zam esselari asosida ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

esselarda shoir va yozuvchilar siymosi badiiy tasviri, asarlar yaratilishida muallif o‘y-fikr va dunyoqarashining ijod namunalarida aks etishini tahlil qilish;

ijodkorlar faoliyatida davrning realistik tasviri, yozuvchi shaxsiy kechinmalarining asarlarda namoyon bo‘lishi, ijod laboratoriyasining asar yaratilishidagi ahamiyati, ijodkor portretini yaratishda so‘z qo‘llash, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishini tadqiq etish;

so‘nggi davrda yaratilgan esselar badiiyatini belgilashda turli poetik vositalardan, jumladan, peyzaj, portret, xarakter qirralari tasvirlari, ijodkorlarning shaxs sifatidagi o‘ziga xosligini zamon va makon nuqtayi nazaridan muhimligini ochib berish;

Esselarda muallif shaxsiyati, uning o‘zgalardan farq qilib turuvchi dunyoqarashi va voqelikka bo‘lgan faol munosabati badiiy mukammal asarlar yaratilishi uchun turtki bo‘lgan omillar sifatida ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik yillarida yaratilgan va asosiy qahramoni ijodkorlar bo‘lgan X.Davron, A.Ko‘chimov, A.A’zam, M.Ismoil qalamiga mansub esselar olingan.

д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2002; Қўчкорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005; Кодирова Н.С. Илмий-адабий тафаккур ва услуб муаммолари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2021; Шукурова Г.Х. Матёқуб Қўшжонов ижодида балиий ва публицистик талқин уйғунлиги: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2021; Мухаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022; Abdunazarov O‘. Nosir Fozilov ijodida davr ruhi va shaxs talqini: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Termiz, 2023.

CamScanner

Tadqiqotning predmetini esselarda qahramon yaratish masalasi, inson shaxsi, ijodkor inson obrazi, esselardagi ijodiy tafakkur, zamon va qahramon munosabatlarida yozuvchi shaxsiyatining namoyon bo'lish usullarini badiiy mahorat nuqtayi nazaridan talqin qilish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda statistik tahlil, tasniflash, tavsiflash, sotsiologik, psixologik, biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

X.Davron, A.A'zam, A.Ko'chimov va M.Ismoil esselarida shoir va yozuvchilar siymosining aks etishi, ularning ijodkor sifatidagi xarakter qirralari hamda adabiy jarayonning faol ishtirokchilari sifatidagi o'ziga xosligini yoritishda muallif munosabati va dunyoqarashining namoyon bo'lishi ochib berilgan;

essenavis ijodkorlar faoliyatida davrning realistik tasviri, yozuvchi shaxsiy kechinmalarining u yaratgan asarlarda yaqqol sezilishi, ijod laboratoriyasining asar yaratilishidagi ahamiyati, ijodkor portretini chizishda so'z qo'llash, badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanishi dalillangan;

adabiy-tanqidiy va badiiy-publitsistik esselarda yozuvchi va shoir obrazini yaratishda essenavis mahorati, xotira-esselarda ijodkor shaxsiy kamolotining ahamiyati, portret yaratish borasidagi haqqoniylik, ta'sirchanlik ijodkor obrazi yaralishida muhim ekanligi, yozuvchining shaxs sifatidagi o'ziga xosligi zamon va makon nuqtayi nazaridan aks etgani isbotlangan;

X.Davron, A.A'zam, A.Ko'chimov esselarida ijodiy fantaziya, badiiy tasvir vositalari orqali ijodkor obraziga chizgilar, M.Ismoil esselarida ijodiy portret, shoir va yozuvchilar fe'l-atvoridagi o'ziga xoslik badiiy mukammal asarlar yaratilishi uchun asosiy omillar bo'lganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Esselar ijodkorning badiiy-estetik, ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy va psixologik yondashuvlarini erkin ifodalashiga asos beruvchi janr sifatida dalillangan;

X.Davron, M.Ismoil, A.A'zam, A.Ko'chimov esselarida tahlil qilingan materiallar, keltirilgan ilmiy xulosalar, dalillar va fikrlar o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon fanini yanada takomillashtirish uchun xizmat qiladigan darslik va qo'llanmalar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

Esselarda tasvirlanayotgan ijodkorlar siymosi kitobxonlar ma'naviyatining yuksalishida, ijod sirlarini teran his qilishlarida, badiiy-estetik zavq olishlarida, ayni paytda davr voqeligiga faol dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq belgilanganligi, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, germenevtik va sotsiologik yondashuvlar asosida olib borilganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, esselarda shoir va yozuvchilar siymosi yangicha yondashuv asosida tadqiq etilgani, esselarda ijodkorlar ma'naviy dunyosi, shaxs sifatidagi o'ziga xosligi nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi, balki jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotda ijodkor shaxsini anglash, yozuvchilardagi ijod erkinligi, badiiy

CamScanner

mahorat yuzasidan mavjud ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanmalar, o'quv uslubiy majmualar tayyorlashda, ijodiy portretlar yaratishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqillik davri esselarida shoir va yozuvchilar siymosi badiiy talqini bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini belgilash, bu davrga xos bo'lgan adabiy tur va janrlar ko'lamining ortishi bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni umumlashtirishda, essenavis ijodkorlar faoliyatidagi davrning realistik tasviri, yozuvchi shaxsiy kechinmalarining asar yaratilishidagi ahamiyatini ko'rsatishga oid tahlillardan, mustaqillik davri essenavis shoir va yozuvchilar asarlari majmuini shakllantirishga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-yanvardagi №04/1-44-son ma'lumotnomasi). Natijada elektron platforma mustaqillik davrida essenavislik, davrning realistik tasviri haqidagi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

esselarda qahramon yaratish masalasi, inson shaxsi, qiyofasi, zamon va qahramon munosabatlarida yozuvchi shaxsiyatining namoyon bo'lishi va shu asosda poetizmlarning shakllanishiga oid nazariy ma'lumotlardan, shuningdek, esselarda ijodiy portret, shoir va yozuvchilar fe'l-atvoridagi o'ziga xoslikni ta'minlashda badiiy vosita bo'lib qo'llangan poetizmlar tahliliga oid materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksioni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-yanvardagi №04/1-45-ma'lumotnomasi). Natijada elektron poetik lug'at yozuvchi shaxsi va uning namoyon bo'lishi haqidagi qarashlar bilan boyitilgan.

Esselarda ijodkor siymosi, yozuvchilar faoliyatida davrning realistik tasviri, ijodiy fantaziya, badiiy tasvir vositalari orqali ijodkor obraziga chizgilar Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining radio ijodkorlari tomonidan tayyorlangan "Tilimizni o'rganamiz" eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 11-dekabrdagi 1063-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur radioeshittirishlar ma'naviy-ma'rifiy hamda badiiy jihatdan boyigan, xalqchilligi ortgan;

yozuvchi shaxsiy kechinmalarining u yaratgan asarlarda yaqqol sezilishi, ijod laboratoriyasining asar yaratilishidagi ahamiyati, ijodkor portretini yaratishda so'z qo'llash, badiiy ko'chim vositalaridan foydalanish zarurligiga doir ilmiy materiallardan 2023–2024-yillarda Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom Xorazm" ko'rsatuvi dasturlari va rejalarini tuzishda foydalanilgan

CamScanner

(Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 11-dekabrdagi 1064-son ma'lumotnomasi). Natijada ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot tadbirlarining metodologik asoslari takomillashishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda, 1 tasi xalqaro nashrda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, hajmi 138 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi va aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

"Esse janri va uning o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi" deb nomlangan birinchi bob 1.1§ **"Istiqlol davri adabiyotshunosligida esse janri talqinlari"** deb nomlanib, esse janri tushunchasi, uning tarixiy ildizlari hamda tadrijiy takomili haqida ma'lumotlar beriladi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyotida bo'y ko'rsata boshlagan esse janri o'ziga xos shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega bo'lib, istiqlol yillarida mavzu va ifoda uslubida muayyan o'zgarishlar yasab, hozirgi adabiy jarayon rivojiga munosib ulush qo'shmoqda. "Muallifning u yoki bu masala, voqea-hodisa, hayotiy holat bo'yicha shaxsiy mulohazalari bayon qilinuvchi nasriy asar, adabiy janr"[5], deya ta'rif berilgan epik turga mansub esse o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 60-yillarida yaratila boshlagan. Mustaqillikdan keyin yozilgan namunalarida yangi bosqichga ko'tarilib, yozuvchi va shoirlar siymosini yaratishda har bir ijodkor shaxsiyatidagi o'ziga xos jihatlarni uslubiy individuallik bilan uyg'un tarzda mujassamlashtirishga e'tibor qaratganliklarni kuzatish mumkin. Shuningdek, essenavislik ijodkorga o'z qarashlarini erkin, mulohazali va tabiiy ifodalash, tilning barcha qatlamlaridan, sheva unsurlaridan keng foydalanish, obrazlar ifodasiga chuqur kirishish kabi imkoniyatlarni ham beradi. Esse – fransuz tilida "essai"[6] – "*tajriba*", "*mashq*", ingliz tilida "essay"[7]– "*insho*", "*sinash*", "*urinish*", "*ocherk*"

[5] Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 376.

[6] Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 57; Ibragimov X., Mamadaliyev A., Mansurov U., Nishonov A., Soatjonov E., Umarov N. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent, 2008. – B. 209.

[7] Бўтаев Ш. Ирискулов А. Inglizcha-o'zbekcha o'zbekcha-inglizcha lug'at. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 185.

(kichik adabiy asar); lotincha "exerceo"[8] – "*mashq qilmoq*", "*shug'ullanmoq*" degan ma'nolarni bildiradi. Yevropa adabiyotida bu janrning asoschisi Mishel Monten bo'lib, uning "Tajribalar" asaridan keyin esse mustaqil janr sifatida anglana boshlandi. Monten "Esse" haqida shunday deydi: "Kitobimning mundarijasi – men o'zimman". Volter uning bu fikrini sharhlab, "Montenning soddadillarcha o'zini-o'zi ta'riflashi o'ziga xos go'zallik kasb etadi. U shu yo'l bilan oxir-oqibat insonning umumiy timsolini yaratdi"[9]. Ushbu fikrga tayangan holda essening dastlabki namunalarida ham inson va borliq haqidagi falsafiy fikrlar aks etsa-da, asosiy qahramon, tugal fikr inson obraziga tutashadi. "Esse muallifi uchun shaxsiy "men" istalgan tashqi tayanchdan ham muhimroq, biroq u o'quvchi bilan muloqot o'rnatishga harakat qiladi. Esse o'quvchisi, odatda, muallifning zamondoshi bo'lib, dunyoqarashi, adabiyotga bo'lgan qiziqishi, intellektual va ilmiy saviyasi jihatidan unga yaqin bo'lgan shaxs hisoblanadi"[10].

Mishel Montenning "Esselar" asaridan olingan III kitobning I bobi "Foyda va halollik" deb nomlanib, unda muallifning falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Yozuvchi hokimiyat egalari bilan bog'liq munosabatlarda o'z prinsiplariga sodiq qolgan, murakkab siyosiy sharoitlarda ham halol va ochiq fikr bilan harakat qilishni afzal biluvchi shaxs siymosini namoyish etadi. Jumladan, muallifning **halollik va samimiylik xislatlarini** namoyish etuvchi: *"Moy, ie m'offre par mes opinions les plus viues & par la forme plus mienne"* (Men o'z fikrlarimni eng jonli shaklda va o'zimga xos uslubda ifodalayman)[11]; **o'zgacha fikrlash va mustaqil qaror qilish afzalliklari** haqida: *"Je ne suis pas subiet à ces hypothèques & engagements pénétrants & intimes"* (Men bu chuqur ildiz otgan majburiyatlar va sadoqatlarga bo'ysunmayman)[12]; **hayotiy tajribaning muhimligi**: *"Rien ne s'est ingéré en cet univers, qui n'y tienne place opportune"* (Bu olamda befoyda hech narsa yo'q, hattoki befoydalikning o'zi ham foyda)[13]; **ozod va mustaqil qarashli shaxs bo'lish**ga doir: *"Je regarde nos rois d'une affection simplement légitime et civile: ni émeu, ni désmeu par intérêt privé"* (Men hukmdorlarimizga faqat qonuniy va fuqarolik muhabbati bilan qarayman: shaxsiy manfaat tufayli na hayajonga tushaman, na befarq bo'laman)[14] degan fikrlari esseda bosh qahramon inson va uning shaxsiyati ekanligidan dalolat beradi.

Manbalarda esse haqida munosabat bildirgan tadqiqotchilar sifatida M.Baxtin[15], L.Ginzburg, Sh.Sent-Byov, R.Uellik, O.Uorren, V.S.Muravyovlarni

---

[8] Йўлдошев М. Лотинча-ўзбекча лугат. – Самарқанд: СамДУ, 2000. – Б. 22.
[9] Гагарин А.С. Мишел Монтен: Борба с иллюзиями и экзистенциалы человека – крапинки // Дискурс-Пи. – Екатеринбург, 2013. №12. – С. 199.
[10] Тесленко М.А. Литературный жанр эссе как философствование и способ философской рефлексии // Научный форум: гуманитарные исследования. – М., 2013. – С. 5.
[11] Michel de Montaigne. Les essais. Publiés d'après l'exemplaire. Tome troisième. Fortunat Strowski et François Gebelin. – Bordeaux: Imprimerie nouvelle f. pech & C', 1909. – P. 5
[12] Michel de Montaigne. O'sha manba. – P. 4.
[13] Michel de Montaigne. O'sha manba. – P. 3.
[14] Michel de Montaigne. O'sha manba. – P. 3.
[15] Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М: Художественная литература, 1975. – С. 504; Гинзбург Л.Я. Записные книжки. Воспоминания. Эссе. – СПб.: Искусство, 2002. – С. 768; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – М: Художественная литература, 1970. – С. 329; Уеллик Р., Уоррен О. Теория литературы. – М: Прогресс, 1978. – С. 325; Муравьёв В.С. Эссе. Краткая литературная энциклопедия. – М: Наука, 1973. – С. 962.

keltirish mumkin. O'zbek adabiyotida essening dastlabki ildizlari Beruniy, M.Qoshg'ariy ijodida uchrasa, Navoiy va Bobur ijodida noma, xotira shakllarida ko'zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotdagi tazkira janri esse yaratilishining Sharq adabiyotidagi ilk ko'rinishlari sifatida qayd qilinadi. "Esse o'zbek adabiyotidagi badia janrining o'ziga xos xususiyatlari bilan g'arb adabiyotidagi esse janrini eslatadi. Biroq esse badi'aga nisbatan kengroq tushuncha"[16]. Tadqiqotchi to'g'ri ta'kidlaganidek, badi'ada essega xos ayrim xususiyatlar ko'zga tashlansa-da, ularni aynan bir janr sifatida olish mumkin emas.

Esse subyektiv janr bo'lib, unda ijodkor xotiralari, hayotiy prinsiplari, yozuvchining shaxs sifatidagi o'ziga xosligi borligicha qalamga olinadi. Bunda esse muallifiga biron bir qonun-qoida yoki talab, ifoda yo'sini tavsiya qilinmaydi. Ya'ni, essenavis nuqtayi nazari markaziy o'rinda turadi. Istiqlolga erishgandan so'ng senzuradan qutilgan yozuvchilar ijodida erkin yozishga intilish, ijodini rang-barang mavzular bilan boyitish, qolaversa, fe'l-atvori ham erkinlikni, ruhi yangilikka tashnaligi ham esse yo'nalishida bir qancha sara adabiyot namunalari vujudga kelishida muhim rol o'ynadi.

Esse janri quyidagi xususiyatlari bilan boshqa nasriy janrlardan ajralib turadi:

- hajm jihatidan cheklanmagan bo'lib, kichik yoki katta shaklda yozilishi mumkin;
- aniq bir mavzu asosida quriladi;
- tematikasi keng, ilm-fan, falsafa, san'at va badiiy adabiyot kabi sohalarni qamrab oladi;
- janr muallif taassurotlari va shaxsiy mulohazalariga asoslanadi;
- muallif individualligi aks etishi;
- erkin kompozitsiya asosiga qurilib, qat'iy tuzilmaga bo'ysunmaydi;
- paradoks va aforistik ifodalar bilan boyitilgan;
- uslubi sodda va erkin bo'lib, ba'zi hollarda ilmiy-ommabop uslubda ham yozilishi mumkin.

Esselarda uslubiy o'ziga xoslik ko'proq *tasviriylik, aforistik ifodalar, og'zaki nutqqa yaqin ohang* va *so'z ifodasi* bilan ajralib turadi. Ushbu uslub qadimdan muallif shaxsi birinchi o'ringa chiqadigan asarlarda shakllangan. Bundan tashqari aynan shu uslubda yozilgan matnlar ko'pincha metafora, tashbeh, simvolika va badiiy obrazlardan foydalangan holda muallifning shaxsiy kechinmalari, yozuvchi munosabatini aks ettiradi. Shu bilan birga, esseda aks etadigan aforistik ifodalar tasvirning qisqa, ta'sirchan va kuchli shaklda ifodalanishini ta'minlaydi. Aforizmlar va iboralar muallifning shaxsiy tajribasi, kuzatishlari va umumlashtirilgan fikrlarini yorqin tarzda bayon qilishga yordam beradi.

"O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi" darsligida esse tasnifi shunday berilgan: "O'zbek adabiyotida essening turli shakllari uchraydi a) adabiy o'ylar; b) esse-roman; d) esse-qissa; e) xotira va hakozo"[17]. Ta'birimizcha, yuqoridagi barcha nazariy ma'lumotlarni umumlashtirib *badialar* nomini ham kiritgan holda umumlashma tarzda esse tushunchasi tasnifi yanada kengroq ta'rif qilinsa,

[16] Кўчкорова М.Х. Хозирги ўзбек адабиётида эссе жанри: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 53.
[17] Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B. 412.

CamScanner

kitobxonda bu mavzuni o'zlashtirishga yengillik bo'lardi. Esse o'z nomi bilan erkin ijod turi, mavzuni keng miqyosda ochib berish, ilmiy, badiiy, tarixiy, tanqidiy, falsafiy, tasviriy usul esse muallifi uchun asqotar ekan, esselarni adabiy o'ylar va badialar deya nomlash kitobxonda ikkilanish holatini kamroq vujudga keltirishiga sabab bo'ladi. Chunki adabiy o'ylarda ham, badealarda ham essega xos sifatlar namoyon bo'ladi. Yuqoridagi nazariy ma'lumotlarga tayangan holda agar esseda:

a) tarixiy-ma'rifiy ahamiyat ustuvorlik qilsa *esse-badea* ("Dovondagi o'ylar", "Mustaqillik me'mori" O.Sharafiddinov; "Samarqand xayoli", "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston" X.Davron);

b) ijodkorning adabiyot, hayot, borliqdagi jamiki voqelik haqidagi o'y-fikrlari aks etgan, so'z jozibasi chuqur aks etgan, bayon etilajak fikr muayyan konsepsiya asosida uyg'unlashsa, *esse-adabiy o'ylar* ("Adabiy o'ylar", "O'ttiz yil izhori" I.G'afurov; "Yosh do'stlarimga" A.Muxtor, "O'ylar" P.Qodirov, "Shoiru she'r shuur" E.Vohidov; "Ijodni anglash baxti", "Kibriyo opaning holvasi" O.Sharafiddinov);

d) voqeiy hodisa, syujet va kompozitsiya nuqtai nazaridan hikoyaga nisbatan murakkab, romanga nisbatan sodda xarakterlanuvchi, erkin mulohaza yuritish tamoyiliga ega, mustaqil syujet yo'nalishi, ichki konstruksiyalar asosida tashkil topgan erkin ijod turiga *esse-qissa* ("Binafsha hidlang, amaki" Sh.Xolmirzayev; "Boshimdagi tojim - onam" M.Ismoil);

e) "Ilmiy va badiiy mushohadalar uyg'unligida shunday bir adabiy-tanqidiy janr borki, uni *esse-roman* deb atash mumkin"[18]. ("Cho'lpon", "Maqsud Shayxzoda" N.Karimov; "Qoraqalpoqnoma" T.Qaypbergenov);

f) Yozuvchi va ijodkorlar to'g'risidagi xotiralar badiiylik xususiyati va avtobiografik xarakterga egaligi bilan essega yaqin turadi. Shu bois unga essening bir shakli, ya'ni *esse-xotira* ("Otam haqida" H.Qodiriy, "Yo'qotganlarim va topganlarim" S.Ahmad, "Abdulla Qahhor" O.Sharafiddinov, "Oybegim mening" Zarifa Saidnosirova) deya baho berish mumkin.

g) ikki va undan ortiq shaxs (olim, munaqqid, adib)larning adabiyot, san'at, tanqidchilik yuzasidan o'tkazilgan suhbati *esse-suhbat* ("Esse – erkin ijod" M.Qo'chqorova // Shukur Xolmirzayev bilan suhbat);

h) gazeta, jurnal, to'plamlarda nashr etiladigan siyosiy, ilmiy, publitsistik, ijtimoiy xarakterdagi erkin ijod turini *esse-maqola* ("Birinchi mo'jiza" O.Sharafiddinov, "Avval bahorda" Ibrohim G'ofurov, "Odamning kuchlisi" Sobir O'nar, "Badiiy publitsistika" Saydi Umirov) deya atalishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari esselarning o'rganilish jarayoni hali davom etayotganligi, bu janrning dunyo adabiyotshunosligidagi tadqiqi, qolaversa, o'zbek mumtoz adabiyotidagi janrlararo sinkretizm hodisasiga ko'ra bildirilgan fikr-mulohazalar sababli janr sifatidagi tasnifiga turlicha yondashuvlar kuzatilayotganini qayd etish lozim. Masalan, Y.Solijonov muallifligidagi "Hozirgi adabiy jarayon"[19] qo'llanmasida essega kichik epik janrlar qatorida qaralganligi; esse janrining taraqqiyot tendensiyalari, adabiyotshunoslik fanlari va janrlararo uzviy bog'lanish,

---

[18] Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B. 413.

[19] Солижонов Ё. Ҳозирги адабий жараён. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Инновация-Зиё, 2020. – Б. 61.

esse turlari va yaratilishidagi o'ziga xoslik, ma'naviy va teran falsafiy mushohadalar tahliliga oid M.Qo'chqorovaning "Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri"[20], qoraqalpoq adabiyotshunosligida ilk bor esse janrining milliy adabiyotda paydo bo'lishi, taraqqiyot qonuniyatlari va shakllanish tamoyillari tadqiqiga oid B.Poluanovning "Qoraqalpoq adabiyotida esse janri"[21]; ijod jarayoni, badiiy asar dunyoga kelishidagi ijodiy tafakkur, obraz yozuvchining estetik ideali sifatidagi tahlil G.Muhammadjonovaning "Mustaqillik davri o'zbek nasrida ijodkor inson konsepsiyasi"[22]; N.S.Qodirovaning "Ilmiy-adabiy tafakkur va uslub muammolari"[23] (I.Haqqul ijodi misolida); O'.Abdunazarovning "Nosir Fozilov ijodida davr ruhi va shaxs talqini"[24] nomli dissertatsiyasida ijodkorlar esselarining badiiy-estetik olami haqida fikrlar keltiriladi.

1.2.§ **"Adabiy-tanqidiy va badiiy-publitsistik esselarda ijodkor obrazi yaratilishining o'ziga xosligi"** deb nomlanib, esselarning ayrim namunalari adabiy tanqid janri sifatida adabiyot tarixi va hozirgi adabiy jarayonning muhim masalalari haqidagi muhokamalar majmui hisoblanishi nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, esse janri badiiy-publitsistika va uning taraqqiyotida o'ziga xos mustahkam o'ringa egaligi keltirilgan. Adabiy-tanqidiy mavzudagi esselarda ilmiy va obrazli fikrlash yetakchilik qilib, asosiy g'oyasi adabiy jarayon muammolari bilan bog'liq holda olimlar, shoir va ijodkorlarning shaxs sifatidagi o'ziga xosliklari, yaratgan asarlarning tahlil va talqinlariga bag'ishlanadi.

Adabiy tanqid sohasida ijodkor faoliyatini yoritishga qaratilgan esselarda quyidagi xususiyatlar aks etadi:

1) yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olimning ijodiy faoliyatini ilmiy-nazariy yo'nalishda yoritish;

2) asarlaridagi bosh g'oyaning yuzaga kelishiga turtki omillarni ko'rsatish;

3) yozuvchi ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirib borish asosida asarlarni tahlil etish;

4) insoniy fe'l-atvori, shaxsiy kechinmalari ifodasi va o'ziga xoslikning asarlarida aks etishi;

5) yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olim tashqi ko'rinishi va ma'naviy dunyosi portreti chizgilari tasviri.

Ijodkor siymosi, asar yaratilishiga monand voqealar va yozuvchi dunyoqarashining aks ettirilishi tanqidchi olim Matyoqub Qo'shjonov ijodida "Nafosat shaydosi", "Abdulla Oripov", "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!", "Eshiting, she'r o'qiyman", "Ijodiy yetuklik", "Qalb pokligi", "Kichkintoylarning ulkan shoiri", "Dagish", "Alam" kabi adabiy portret va xotiralarida yaqqol ko'rinadi. Jumladan, "Ulug' adib, ulug'vor inson", "Nafosat shaydosi" xotiralarida yozuvchi Oybekning she'riy to'plamlari, tarjimalar va ilmiy faoliyati haqida to'xtalarkan, ijodkorni yirik prozaik deb ataydi. Adabiyotga shoir sifatida kirib kelganligini,

---

[20] Кўчкорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004.
[21] Полуанов Б.Н. Қоракалпоқ адабиётида эссе жанри: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Нукус, 2002.
[22] Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022.
[23] Қодирова Н.С. Илмий-адабий тафаккур ва услуб муаммолари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2021.
[24] Abdunazarov O'. Nosir Fozilov ijodida davr ruhi va shaxs talqini: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Termiz, 2023.

CamScanner

qolaversa, dastlabki she'rlarida mukammallik kuzatilmasligini anglatuvchi tanqidiy fikrlarni ham bildirib o'tadi. Navoiy obrazini yaratishdagi o'ziga xos yo'nalish, ijodiy g'oyalarini pishitish jarayonidagi Oybekning ruhiy holatiga katta e'tibor qaratadi. Matyoqub Qo'shjonovning tanqidiy yo'nalishdagi qarashlari sababli ijod ahlining o'zligi, ruhiy holati tasviridan tashqari ijodkorlarning ilmiy faoliyati haqida nazariy xulosalar ham aks etganini ko'rish mumkin.

Ozod Sharafiddinovning "E'tiqodimni nega o'zgartirdim", "G'afur G'ulomning kulgisi", "Chinorlardan biri", "Bu uyning chirog'i hamisha yoniq", "Kibriyo opaning holvasi", "Adabiyotimiz fidoyisi", "Bardosh va sadoqat", "Muvashshah", "Saraton avjida faraxli bir oqshom", "G'ayratiy haqida so'z", "Jannati odam edi" esselarida ham ulug' munaqqidlarning hayot va adabiyot, inson va ijodkor obrazi haqida fikrlar keltirilib, unda yozuvchi va shoirlar, ijod ahlining o'zligi, ruhiy holati tasviri, inson sifatidagi o'ziga xos olamiga alohida e'tibor berilgan. "Ijodni anglash baxti" nomli adabiy o'ylar va esselar to'plamida G'.G'ulom shaxsiga chizgilarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin: G'.G'ulomga bolalik va o'smirlik chog'idagi katta havas; shoirning adabiy jarayondagi o'rnini keltirib o'tish; ijodiga berilgan baho; shaxsiy qiziqishlarini esse tarkibida keltirish (*Detallar: Luchchak shaftoli, Bobotoy pistasi, bulbul va bedana ovozini eshitib hordiq chiqarishi, gullarni sevishi, o'zbekning yaktagi, qirchillama etigi, chust do'ppisini yaxshi ko'rishi*); tashqi ko'rinishi va ma'naviy dunyosiga aloqador sifatlarni keltirib o'tish: "G'afur G'ulom tabiatan quvnoq odam bo'lgani uchungina kulgan emas, balki kulgidan, balo-qazolardan asraydigan bir qalqon sifatida foydalangan..."[25].

Dissertatsiyada esseni adabiy-tanqidchilik obyekti sifatida o'rganishga doir Sh.Ahmedova[26], G.Shukurova, N.Qodirovalarning tadqiqotlari; badiiy-publitsistik yo'nalishdagi tahlillar S.Qurbonova[27], A.Abdusaidov ilmiy izlanishlari tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida badiiy-publitsistikaning esse-xotira turi jonlana boshladi. Bu yo'nalish adabiy jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otib, xotiralarda, avvalo, yaqin o'tmishdagi adabiy hayot, ulkan adiblarimiz, mashhur asarlar va uning ijodkorlari xususida bor haqiqatni mardona aytilgani bilan jozibadorlik kasb eta boshladi. "Esse faqat tanqidchilikning emas, badiiy adabiyot, jurnalistika, falsafaning ham o'rganish obyekti ekanini nazardan qochirmaslik kerak"[28]. Badiiy adabiyotning tur va janrlararo taraqqiyoti, g'oya va shakl jihatdan mukammallik kashf etayotgan bugungi kunda badiiy publitsistika sohasida ham yuksalishlar kuzatilmoqda. Xususan, esse janri badiiy publitsistikaning ham ko'rinishi sifatida e'tirof qilinishi, bu borada respublikamizda nashr qilinayotgan gazeta va jurnallarda

---

[25] Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 271.

[26] Қодирова Н.С. Илмий-адабий тафаккур ва услуб муаммолари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2021.

Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилигининг жанрий таркиби хакида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. 5-сон. – Б. 28.

[27] Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Мухаррир, 2012;

Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Самарқанд, 2005.

[28] Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B. 416.

CamScanner

chop etilayotgan esselar faqat ijodkorlar tomonidan emas, balki turli soha vakillarining ham ijod namunalari sifatida yuzaga chiqayotganini kuzatish mumkin.

Hotam Umurovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" nomli darsligida essega epik turning maxsus janri sifatida qaralib, badiiy publitsistika deb yuritilishi hamda ocherk, felyeton, xotira kabi turlarga bo'linishi, bu janrlarga xos xususiyatlar sifatida keltiriladi. Xotira deb atalgan nazariy xulosa adabiyotshunoslikdagi xotira-essega monand belgi va xususiyatlarni o'zida jamlashi asoslangan. Jumladan, "Ko'pincha xotirada muayyan san'atkorning hayoti va ijodiga oid yodnomalar naql qilinadi, bu naql fakt dalillarga suyanadi, chuqur tahlil va tadqiqni talab etadi..."[29]. Aynan mana shu jihati bilan esse hujjatli janr yoki publitsistik nasr xususiyatlarini o'zida jamlasa, muayyan ijodkor yoki san'atkor hayoti va faoliyatini xotirlash xususiyatlari bilan esse-xotiralarga xos belgilarni o'zida namoyon etadi.

Umarali Normatov o'zining "Umidbaxsh tamoyillar" nomli risolasida istiqlol yillarida badiiy publitsistika sohasidagi o'sish va o'zgarishlar haqida to'xtalarkan, esse-xotira turining qayta jonlanayotganligini va bu janr adabiy jamoatchilikda qiziqish uyg'otayotganligini qayd qilinadi.

Badiiy-publitsistika va uning taraqqiyotida esse janri haqida g'arb olimlarining nazariy qarashlari, ilmiy-falsafiy fikrlari ham ko'zga tashlanadi. Rus olimi T.M.Stepanovaning tadqiqotida esse janrini publitsistik nasrning badiiy olami sifatida e'tirof etadi. Tadqiqotchi esselarni falsafiy, tarixiy-biografik, badiiy-publitsistik, adabiy-tanqidiy va badiiy xarakterga ega esselarga bo'larkan, badiiy-publitsistik esselarni "Esseizm – yangi davrning sintez hodisasi sifatida" hamda "Publitsistik esse kichik nasriy janr" boblari tarkibida tahlil qiladi.

Tadqiqotchi A.A.Tertichniy tadqiqotida badiiy-publitsistik xarakterdagi esselarning ta'rifini quyidagicha keltirilgan: "Esse janrida mualliflar o'z shaxsiy tajribalari va keng hayotiy haqiqatlar asosida voqealarga o'z munosabatlarini bildirishga urg'u berishadi. Janr asosan muallifning shaxsiy fikrlari va baholariga tayanib yaratiladi hamda yozuvchining hayotiy falsafasini bayon qilishga intilishini ko'rsatadi"[30] hamda badiiy-publitsistik esselar faktlarga tayanishi bilan tanqidiy esselardan farqlanishini asoslaydi.

Badiiy publitsistika sohasida yaratilgan ijodkor faoliyatini yoritishga qaratilgan esse-xotiralarda quyidagi xususiyatlar aks etadi:

– muayyan ijodkor, davlat arbobi, san'atkorning hayoti va ijodiga oid yodnomalar keltirilishi, bu voqeiy xotira fakt, dalillarga suyanishi;

– jiddiy tahlil va tadqiqni talab etishi jihati bilan esse hujjatli janr yoki publitsistik nasr xususiyatlarini o'zida jamlashi;

– ijodkor yoki san'atkor hayoti, faoliyatini xotirlash xususiyatlari mavjudligi;

– yozuvchining obraz yaratishida ijodkor shaxsiyatiga e'tibor qaratishi;

– asar yuzaga kelishida asosiy faktorlarni belgilash;

– badiiy asardan ijodkor fenomenini topish.

Esse janri takomillashib borayotganligi, turli mavzu va yo'nalishlarda yaratilayotgan esselar mukammal bir shaklga kelganligini "Jahon adabiyoti",

---

[29] Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. Дарслик. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004. – Б. 224.

[30] Тертычный А.А. Интернет-публицистика: жанровый профиль // Ученые записки Казанского университета: гуманитарные науки. Том 156. – М., 2014. – С. 11.

CamScanner

"Yoshlik" jurnallarida chop etilayotgan esselar misolida ko'rish mumkin. Bu jurnallarda Vatan, ota-ona, insonlardagi tuyg'ular, ulug' ne'matlar tavsifi kabi turli mavzudagi esselardan tashqari, yozuvchi, ijodkor, davlat arboblari, tarixiy shaxslar faoliyati, insoniylik xislatlariga e'tibor qaratilgan esselar ham ko'p uchraydi. Ushbu esselarda atoqli adiblarimiz G'.G'ulom ("G'afurona tarona"), A.Qahhor va Oybek ("Qulatilgan chinorlar panohida"), E.Vohidov ("Azal mayining mazasi"), Zulfiya ("Zulfiya haqida", "Kechagiday hamon esimda", "Ikki xalq kuychisi", "Uni Farhod der edilar") kabi el sevgan yozuvchilar faoliyatining yorqin jihatlari, insoniy qarashlari, shaxs sifatidagi fe'l-atvori qalamga olingan. G'.G'ulom xotirasiga bag'ishlangan esselarda ijodkorga xos iste'dod, ko'p qirralilik, yumorga boylik A.Qahhor[31], Mirtemir, S.Ahmad, O'.Hoshimov, U.Normatov, A.Fayzulla[32], R.Inog'omov esselarida; tarixiy siymolarni gavdalantirish, yozuvchi ijodiy portreti asosida shaxsga xos xislatlarni tarannum etish bo'yicha P.Qodirov[33], M.Ali, T.Dolimovlar yaratgan esselarida ijodkor siymosini aks ettirishga intilish yuqori hisoblanadi va bu badiiy publitsistika sohasida inson va ijodkor o'zligini tasvirga olish faol ekanligini bildiradi. Shunday bo'lsa-da, keyingi davrlarda yaratilayotgan esselarda qalamga olingan shoir va yozuvchilar siymosi tasvirini tahlilga tortish, ilmiy jihatdan munosabat bildirish, xolis baho berish adabiyotshunoslar oldida turgan masalalardan sanaladi.

Dissertatsiyaning **"Ijodkor siymosini yaratishda essenavis mahorati"** deb nomlangan ikkinchi bob 2.1 § da **"Zamonaviy esselarda ruhiyat talqini"** masalasi tadqiq etilgan. Ijodkor Abdusaid Ko'chimov esselarida shoir va yozuvchilar siymosini badiiy gavdalantirish, shaxslik va insoniylik sifatlarini xotiralarda umumlashtirishi asoslangan.

Essenavisning "Hayqiriq" nomli badiasi iste'dodli shoir Azim Suyun ijodiy olamini badiiy kashf etishga bag'ishlanadi. Esse shoir uslubiga xos xalqona ohang va baxshiyona ruhda yozilgan. Bu essening "Hayqiriq" deb nomlanishidayoq sezilib turadi. Zero, Azim Suyun she'riyatining yuksak vatanparvarlik ruhi, da'vatkor g'oyasi shoir shaxsiyati, ijodiy olami, uslubiy o'ziga xosligi bilan uzviy bog'lanib ketgan. Shoirning o'zligini anglatuvchi birinchi omil uning dastlab she'r o'qishida namoyon bo'lganidek, esse ham shoirning she'r o'qish lavhalari bilan boshlanishi muallifning mahorati sifatida e'tirofga loyiq.

Essenavisning mahorati shundaki, shoirning she'r o'qish jarayonidagi holatini tasvirlar ekan, ana shunday shiddat, keskirlik o'qilayotgan she'r mazmunida ham mavjudligini, shoir "men"idagi xususiyatlar shoir she'riyatining o'q tomirini tashkil etishini ham kitobxonga yetkazadi. Ijodkor siymosini yaratish, uning insoniylik etishini ham kitobxonga yetkazadi. Ijodkor siymosini yaratish, uning insoniylik xislatlarini qalamga olishda tasvir etilajak adabiy qahramonning portreti muhim

---

[31] Абдулла Қаххор. Севикли шоиримиз // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 20; Миртемир. Ўтнафас // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 21; С.Аҳмад. Биллур сиёҳдон // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 25; Ҳошимов Ў. Мехрибон кампир ва ухтчан ўгри // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 29; Нормитов У. Шум бола. Мафкуравий-сиёсий тазйик ва рух эркинлиги // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 31.

[32] Файзулла А. Буюк байналмилал шоир // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 40; Иногомов Р. Асрий бироларлик киссаси // Жаҳон адабиёти. 2003. 5-сон. – Б. 36.

[33] Қодиров П. Амир Темур сиймоси // Жаҳон адабиёти. 2006. 8-сон. – Б. 97; Муҳаммад Али. Абадий соғинчлар // Жаҳон адабиёти. 2004. 10-сон. – Б. 53; Долимов Т. Оламшумул аллома // Жаҳон адабиёти. 2000. 6-сон. – Б. 121.

CamScanner

ekanligini, ayni chog'da tashqi ko'rinishidan tortib, ichki kechinmalarigacha bo'lgan jarayonni batafsil yorituvchi unsur ekanligini ta'kidlash joiz.

"Kamtarlikning baland cho'qqisi" essesi ijodkor, mohir tarjimon Ma'ruf Jalil hayoti va ijod olami, chin insoniy xislatlarini tasvirlash, iste'dodli shoir ijodiy laboratoriyasi tadqiqiga (Diss. 53-bet) "Qovurdoq" essesi yumoristik uslubda yozilgan bo'lib, O'tkir Hoshimovning ijod olami, xarakter xususiyati, hozirgi adabiy jarayondagi o'rni, badiiy mahorati, asarlaridagi o'ziga xoslikning asl mohiyatiga bag'ishlangan (Diss. 55-60-betlar). Yozuvchi "Dilkash lahzalar" essesida Pirimqul Qodirov xonadoniga tashrif paytidagi hol-ahvoli, ruhiyatini aks ettiruvchi portretini chizar ekan, toliqish alomatlari sezilsa-da, ijodga ishtiyoqi avvalgidan baland ekanligi, ijodkorning ko'ngil oynasi, qalb haroratini namoyon qiluvchi ko'zlar chizmasiga urg'u beradi (Diss. 60-61-betlar). Pirmat Shermuhammedovga bag'ishlangan "Tezoqar sokin daryo" essesi ijodkorning badiiy olami, ijodiy kamoloti, kasbiga nisbatan mas'uliyatli va o'ta talabchan ekanligi, shaxs sifatida o'ziga xos tiynatga ega ekanini yoritishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi (Diss. 61-64-betlar).

Shuningdek, kompozitsion qurilishi 5 qismdan iborat, voqealar ketma-ketligi xronologik tarzda yoritilgan "Buni hayot deydilar..." deb nomlangan essesini yozuvchi Odil Yoqubovga bag'ishlagan. Esse syujetini tashkil etuvchi asosiy unsurlardan biri bo'lgan prologning keltirilishi esse badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omil bo'lgan. Ya'ni ijodkor Pirmat Shermuhammedov o'zbek prozasini yuksakda parvoz qilayotgan bir qush desa, Odil Yoqubov bilan Pirimqul Qodirovni uning ikki qanotiga o'xshatishi syujet asosini tashkil etuvchi motiv sifatida xizmat qilgan. Ularsiz o'zbek nasri ko'rimsiz, kambag'al va g'arib bo'lib qolishi haqidagi shogirdlarning ustozi haqidagi dilkash suhbati bilan esse voqealari boshlanadi.

A.Ko'chimovning "Yaxshilik g'olibdir, yaxshilik g'olib" nomli essesi yozuvchi Shukrullo (Yusupov) xonadoniga tashrifdan keyin yaratilgan bo'lib, unda ijodkorning insoniy fazilatlari, badiiy qarashlari, ijod olami qalamga olingan. Tashrif chog'ida ijodkor va uning turmush o'rtog'i Munavvarxon ayaning ibratli hayot yo'li haqida hikoya qilishni maqsad qilgan essenavis Maqsud Shayxzoda haqidagi yorqin xotiralar bilan asarning badiiy jozibasiga qoliplash san'atini kiritib, ya'ni xotira ichida xotira shaklida yana bir siymoni aks ettirishni maqsad qiladi.

Abdusaid Ko'chimov esselarida inson tasviri, ijodkor ruhiyati tahliliga chuqur e'tibor qaratilib, yozuvchi ijod laboratoriyasiga nazar solish, asar g'oyasi yuzaga kelishida ijodkor shaxsiyatining ahamiyati xususida xulosalar qilingan. P.Qodirov, A.Suyun, M.Jalil, O'.Hoshimov, S.Ahmad, O.Sharafiddinov kabi ijodkorlar faoliyati, hayotiy prinsiplari, ijtimoiy masalalarga bo'lgan munosabati, ma'naviy-axloqiy yo'nalishdagi qarashlari, ichki kechinmalari tasviri va ularning ijodida aks etishi essenavisning xotira-esselarida keng yoritilgan.

2.2 § **"Xotira-esselarda realistik tasvir va ijodkor mahorati"** deb nomlanib, ushbu qismda Abdusaid Ko'chimov esse va uning taraqqiyoti haqidagi fikrlarida istiqloldan keyingi adabiyotda shakl va mazmun jihatdan tub o'zgarishlar bo'lib, publitsistika yo'nalishida esse ko'proq ommalashganini, bu janr ijodkor hayot haqiqati bilan ko'ngildagi bor tuyg'ularni, fikrlarni, munosabat va qarashlarni bildirish imkoniga egaligi bilan publitsistikaning boshqa janrlaridan ajralib turishini

CamScanner

ta'kidlaydi. Bu borada o'zi yaratgan esselarda ijodiy fantaziya essenavisning hayotiy kuzatuvlari asosida yuzaga kelishini ham e'tirof etgan.

"Men shoirman, istasangiz shu..." nomli essesi XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyatining atoqli namoyandasi Abdulla Oripov hayoti va ijod faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, ijodkorning shaxs sifatidagi dunyoqarashi, o'y-fikrlari, insoniylik qiyofasini yoritishda muallif esse qahramonining o'ziga "so'z berish" usulidan foydalanadi. Ushbu esse maxsus kitob holida chop ettirilgan bo'lib, shoirning o'zi ishtirok etgan "Gurunglar"dan tashkil topgan va ushbu gurunglarda shoir o'zini-o'zi kashf etadi. Kitobxon har bir gurung markazida bo'lgan shoirning ijodiy jarayondan tashqari davralardagi suhbatidan voqif bo'ladi, hayot va adabiyot haqidagi o'y-fikrlari bilan o'rtoqlashadi. Essenavis Abdulla Oripovni she'rni go'zal ifoda, yuksak poetik talab bilan o'qiydigan notiq sifatida tasvirlaydi. Ijodkorlar davrasida shoirning ovozidagi she'riy ohang, har bir tovushni alohida e'tibor va mehr bilan o'qishidan buyuk notiqlarga xos ayricha jihat suratlanadi.

Abdulla Oripovning quvvai hofizasi, bilimining kengligi, fikriy hassosligiga, shoirdan ham ko'proq faylasuf mutafakkirga o'xshab so'zlashlariga inson havas bilan qarashi, suhbat chog'ida hech bir masalaga yengil-yelpi fikr bildirmaydigan shoirning tibbiyot sohasidagi fikrlari kishini o'yga toldirishi, kasallik insonni shukronalikka o'rgatishi kabi fikrlari uning insoniy siymosining ochilmagan jihatlaridan so'zlaydi. Musofir yurtda yaqinlar va tengdoshlar davrasidan uzoqda o'tgan kunlarida o'zi bilgan-tanigan va tanimagan ijodkorlar shoir ziyoratiga kelarkan, ular bilan Dada Qo'rqut kitobi, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro ijodi, Oshiq Poshoning tasavvufona ruhdagi she'riyati haqida mazmunli suhbat quradilar. Bu suhbatlar asnosida shoirning yuksak ma'naviy qiyofasi yanada teranroq namoyon bo'ladi.

A.Ko'chimov esselarida A.Qahhor, M.Shayxzoda, Shukrullo, O.Yoqubov, A.Oripov, P.Shermuhammedov ijodi va shaxs sifatidagi o'ziga xoslikni tarannum etuvchi badiiy chizgilar keltiriladi. Ijodkorlar dunyoqarashidagi samimiylik, soddalik, hozirjavoblik, fidoyilik kabi fazilatlar jonli tarzda tasvir etiladi.

"Esse-xotiralarda adabiy portret hamda ijodkor olami motivlari" nomli uchinchi bobning 3.1 § da **"Xurshid Davron va Muhammad Ismoil esselarida ijodkor siymosi talqini"** esse janrining hozirgi adabiy jarayonda tutgan o'rni, janr taraqqiyot imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, X.Davron va M.Ismoil yaratgan esselar ijodkor yoki buyuk siymolar tavsifi, yozuvchi adabiy portretida ijod olamining o'ziga xosligi masalalariga bag'ishlangan. X.Davronning "Samarqand xayoli" essesida tarix va uzoq o'tmishdagi xalq qahramonlari xususida so'z ketarkan, tarixiy voqealar badiiy tasviridan tashqari ulug' mutafakkir Alisher Navoiy va Bobur Mirzo obrazining poetik tahlili ham yozuvchi ijodining yangi bir qirrasi sifatida talqin etiladi. "Navoiy armoni" essesi Alisher Navoiyning biz bilgan ijod durdonalari, turkiy va forsiydagi lirikaning noyob namunalari, saroy ishlari bilan baravar qalam tebratishdagi g'ayrati haqida so'z yuritilar ekan, Ollohni tildan qo'ymagani, darveshlar dilini ranjitmagani, har bir ishda ixlos va iymonni kasb etgani haqida fikr yuritiladi.

CamScanner

Ijodkorning essenavislik mahorati, avvalo, til boyligi, obrazli ifoda vositalari va tarixiy manbalarga murojaat qilishdagi o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi. Xurshid Davron esselarida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

– **badiiylik va tasviriylik** – esselari nafaqat ma'lumotlar beradi, balki o'quvchini o'zi tasvirlayotgan voqea va taassurotlar ichiga olib kiradi;

– **falsafiylik** – esselarida voqeiy hodisalar, inson ongi, hayot ma'nosi va madaniyatning rivojlanish tamoyillari haqida fikr-mulohaza yuritiladi;

– **tarixiy va madaniy mulohazalar** – o'zbek va jahon tarixi, madaniyati, adabiyoti bilan bog'liq mavzularni yoritadi va ularga yangi nigoh bilan qaraydi;

– **og'zaki nutqqa yaqinlik** – X.Davron esselari sodda, ravon va shu bilan birga, teran ma'noga ega bo'lib, o'quvchiga tushunarli uslubda yozilgan.

Xurshid Davron esselari ijodkor shaxsning hissiyotlari, tafakkuri va dunyoqarashini chuqur aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z esselari orqali nafaqat biror mavzuni yoritadi, balki o'quvchini mulohaza yuritishga, tarix va madaniyat haqida yangi fikrlar shakllantirishga chorlaydi. Esselarida tarixiy shaxslar va ularning hayoti badiiy talqin etilib, o'quvchi ularni nafaqat davlat arbobi yoki shoir sifatida, balki komil inson, milliy merosga hissa qo'shgan shaxs sifatida ko'radi.

Xurshid Davron hayot va ijod yo'lida ustozlarga ehtirom ko'rsatish azaliy qadriyat ekanligi, har qanday mavzuda shogirdlik ehtiromi ijodkorning hayot maslagi kabi jaranglar ekan, essenavis Erkin Vohidov haqidagi essesida ustoz-shogirdlik an'analarida mujassam hikmat haqida to'xtaladi va asarni "Ustoz ibrati" deb nomlaydi. Ta'kidlashicha, ustoz va shogirdni bog'lovchi ruhiy va ma'naviy rishta ibratdir. Shoirning uchta betakror qirrasi – shoirlik, tarjimonlik, mumtoz adabiyot namunalarini yangilash yo'lidagi sa'y-harakatlarini tilga oladi. Ko'ngilning nozik kechinmalari aks ettirilgan she'rlari, jahon adabiyoti noyob durdonalaridan qilingan tarjimalar hamda eng asosiysi, mumtoz adabiyotning unutilishga mahkum bo'lgan, ammo o'z davri lirikasining go'zal namunalari bo'lgan tizim aruz vazni haqidagi qarashlari, g'azalda sof o'zbekcha so'z qo'llash mahorati xususida fikr yuritadi.

Shoirning "Musavvir bo'lmoq ersang" nomli essesida taniqli rassom Isfandiyor Haydarov va uning ijod olamiga badiiy sayqal berilishi, iste'dodli rassom chizgan rasmlar she'r kabi o'qilishi haqida essenavisning badiiy mahorati ko'rsatib berilgan (Diss. 96-bet). Milliy adabiy an'analar va dunyo adabiyoti tajribalarini puxta o'zlashtirgan, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkor Xurshid Do'stmuhammad haqida "Xurshid Do'stmuhammadni o'qib..." nomli essesi tahlilga tortilgan (Diss. 97-98-betlar).

O'zbek adabiyoti zabardast vakili Muhammad Ismoil ijodida ham esse janriga xos asarlar ko'p uchraydi. Jumladan, "Bahorning eng so'nggi lolasi" ("Boshimdagi tojim - onam" esse-qissasi), "Aql egalari uchun mo'jizalar bor" ("Buyuk yo'lovchi", "Ziyorat", "Qandil", "Ota duosidan baxt topgan inson", "Ustozga ehtirom", "Zamigor", "Chingiz Aytmatovning birinchi muhabbati", "Muhabbat darsi" esselari) nomli kitoblaridan turli mavzudagi esselar, yozuvchilar siymosiga badiiy chizgilar keltirilgan. "Millat yuragining durdonalari" nomli kitobidan esa o'zbek adabiyotining betakror vakillari, qalam ahllari, buyuk yozuvchilarning ijod

CamScanner

jarayonidagi o'ziga xos olami, ilhom manbayi, ijod laboratoriyasi, shaxslik xislatlari yoritilgan esselar keltirilgan.

Yozuvchining "Millat yuragining durdonalari" nomli kitobidan buyuk adiblarimiz ijod olami, xarakter tasviri keltirilgan xotira-esselar joy olgan bo'lib, ijodkorlarning istiqlol yillaridan keyingi qalamdagi erkinligi, insoniy tuyg'ulari ulug'langan. Ijodkorlar O.Yoqubov, Mirtemir, Shukrullo, E.Vohidov, R.Parfi, T.Sulaymon, M.Yusuf, H.Xudoyberdiyeva, A.Ko'chimov, T.Sodiqovalarning adabiyot maydonidagi betakror o'rni, ijodiy jarayondagi yutuqlari, oilaviy hayotdagi o'ziga xosligi, insoniy kechinmalari tasviri, shaxsiy xulq-atvori, ijtimoiy hayotdagi yutuqlarining tagzamini haqida fikrlar keltirilgan.

"Diyonat daryosi" nomli essesida atoqli adib Odil Yoqubov hayot yo'li, ijod kredosi chuqur tahlil qilingan. Kitobxon adibning so'z qo'llash mahorati yuksak va inson psixologiyasining chuqur bilimdoni ekanini, yonidagi suhbatdoshini qanday mavzuda, nima haqida gaplashayotganidan qat'i nazar so'zlashiga qarab qanday shaxs ekanligini aniq bilib olish qobiliyatiga ega ekani, ayni shu jihati bilan boshqa ijodkorlardan tubdan farq qilishini anglab yetadi.

Muhammad Ismoilning Shukrullo haqidagi xotiralarga bag'ishlangan essesi "Ko'ngil taxtidagi sulton" deya nomlanadi. Boshqa esselardan farqli ravishda adib Shukrulloni "afsonaviy odam" hamda "oqsoqol shoir" degan sharaflar, badiiy o'xshatmalar bilan boshlaydi. "Shlyapa kiying, ustoz" essesi yozuvchi va publitsist Abdusaid Ko'chimov ijodiy kamoloti, shaxsiy o'ziga xosligi, bolalik xotiralari haqidadir. Esseda ijodkor yolg'on nimaligini bilmaydigan, to'g'riso'z, sodda va samimiy inson ekaniga urg'u qaratilib, uning boshqa ijodkorlardan farqli jihatlaridan biri sifatida adabiy til va adabiy qo'llanmada yo'q so'zlardan samarali foydalana olishida, deb bilishida ko'rinadi.

3.2 § "Ahmad A'zam esselarida shaxsiyat va badiiyat qirralari" deb nomlanib, ijodkor qalamiga mansub esselarda janrning yangicha imkoniyatlari, essenavis ijod olamining o'zgacha talqini guvohi bo'lishimiz mumkin. A.A'zam ijodida adabiy o'ylar, adabiy-tanqidiy yo'nalishdagi esselar ko'plab uchraydi. Jumladan, "Mas'ul so'z" nomli kitobidan shoir va xalqimiz ardog'idagi buyuk ijodkorlar yaratgan asarlar, yosh qalamkashlar ijodiga berilgan tanqidiy va xolis baho adabiyotimizda misli ko'rilmagan katta yutuqlardan hisoblanadi. Boisi adabiy tanqidning o'zi ham ba'zan tanqid ostiga olinib tursa, samara yaxshi ekanligi, qolaversa, badiiy mukammal asarlar adabiy jarayonga kirib kelishi uchun ham tanqidchilarimiz an'anaviy bir xil baho berishdan voz kechib, tanqid ilmini dastavval mukammal egallab olishi zarurligi haqida ham fikr-mulohazalarini bayon qiladi. Ijodkorlar Rauf Parfi, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon tomonidan yaratilgan g'oyaviy pishiq asarlar tahlili va ijodkorlar siymosini badiiy gavdalantirishga "Mansur dard", "Olam so'z shakliga kirganda", "Kunduzning rangi", "Piyoda tog'lar" esselarida so'z sehrining g'oyat nafisligidan maydonga kelgan she'riyatning dolzarb masalalariga jiddiy e'tibor qaratadi. So'zning ma'no nozikliklariga yuklangan g'oyaviy jihatdan pishiq asarlar adabiyot maydonida yetilishi zarurligini batafsil yoritadi.

Essenavis ijtimoiy hayotning turli jihatlarini badiiylik asosida qog'ozga tushirar ekan, televideniyadagi ko'plab dolzarb mavzudagi teleko'rsatuvlardan

CamScanner

tortib, nasriy, publitsistik asarlar, adabiy-tanqidiy maqolalar, suhbat va esselar muallifi hamdir. Badiiy ijod haqida A.A'zamning ushbu fikrlari yozuvchining ijod manerasini tashkil etadi: "Til badiiyatini egallamay asar yozish – o'ziga nisbatan behurmatlik va kitob ahliga nisbatan axloqsizlik. Axloqsizlikni so'kkandan ko'ra, uni quloqni berkitib, eshitmagan ma'qul deb bilaman"[34]. Adabiyot va hozirgi adabiy jarayon borasidagi bunday ta'sirli va mas'uliyatli so'z egasining hayot qarashlari, ijod jarayoniga yondashuvi har bir davrda, ayniqsa, bugungi axborotlar oqimi keng, kitob o'qishga ishtiyoq ancha susaygan bir davrda yanada dolzarblik kasb etadi.

Ahmad A'zam ijodiga xos xususiyatlardan biri o'ychil va sinchkovlik desak, hayotdagi hamma ham ko'ra olmaydigan holatlarni nazardan qochirmasligi boshqa ijodkorlardan farqlantiruvchi asosiy xususiyatidir. Badiiy so'z imkoniyatlaridan unumli foydalanib, adabiyot ixlosmandlarini o'ziga tortuvchi, milliy adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega asarlar yaratgan ijodkor, deya baholaymiz.

Yaqinlari, do'stlari Ahmad A'zamni kuyunchak bir shaxs, yurganda ham shaxdam-shaxdam, gapirganda qat'iy-qat'iy gapiradigan inson ekanligini ko'p xotirlaydi. Uning "O'y o'ylaganda..." nomli badiasi yuzaga kelishida shu fe'l-atvori muhim rol o'ynagan. Esseda inson o'z ruhiyati bilan yolg'iz qolganda unga hamrohlik qiluvchi tuyg'ular, o'y-kechinmalar ummoni haqida bahs yuritadi. Inson bir daqiqa ham o'ysiz tura olmasligi, xayolga kelgan o'ylarda esa osoyishtalik har doim hukmron bo'lavermasligini qayd etadi. Ahmad A'zamning "Aka" nomli essesida ijodkor, tahrirchi Mahmud Sa'diy bilan tanishuvi, publitsistikaga qo'ygan qadami shu inson bilan bog'liq ekanligi yoritiladi. Adabiyotimizning keyingi avlodlari orasida yangicha uslubda o'sib kelayotgan ijodkorlardan biri Nazar Eshonqul haqidagi fikrlarni Ahmad A'zam "Yangi voqeliklar yaratayotgan adib" nomli esseda aks ettiradi. Esse muallifi Nazar Eshonqul adib sifatida dastlab og'ir-vazmin, keng qamrovli uslubda adabiyot maydoniga kirib kelganligini ta'kidlar ekan, ko'p o'tmay yozuvchilar orasida hech kimnikiga o'xshamas badiiy tafakkur tarzi – tamsiliy ifodalariga o'tadi.

XULOSA

1. Istiqlol davri adabiyotshunosligida esse janri va uning taraqqiyot tendensiyalari yaratilgan esselarning yozuvchilar siymosining o'ziga xos badiiy talqini ekanligi bilan belgilanadi. Adabiy tanqidiy yo'nalishdagi esselar tahlili ijodkorlar siymosini badiiy gavdalantirishda o'ziga xos xususiyatlar: yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olimning ijod faoliyatini tahlil qilish; asarlaridagi bosh g'oya yuzaga kelishiga turtki omillarni ko'rsatish; ijod laboratoriyasi tasvirini keltirish; insoniy fe'l-atvori, shaxsiy kechinmalari ifodasi va bu o'ziga xoslikning asarlarida aks etishi; yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olim tashqi ko'rinishi va ma'naviy dunyosi portreti tasviri orqali ijodkor shaxsini anglash muhim tamoyil ekanligini ko'rsatdi.

2. Esseda ijodkor biografiyasidan tashqari qahramon adabiy portreti ham essenavis imkoniyatlarini kengaytiruvchi, yozuvchi xarakterini ochishga xizmat qiluvchi omil ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adabiy tanqidchilik janrlaridan

[34] Ahmad A'zam. Adabiy asar – til hodisasi // Yoshlik jurnali. 2012. 6-son. – B. 3.

CamScanner

biri bo'lgan adabiy portretlar ham ma'lum ma'noda essenavislik taraqqiyoti uchun hissa qo'shadi. Adabiy-tanqidiy mavzudagi esselarda ilmiy va obrazli fikrlash yetakchilik qilib, asosiy g'oyasi adabiy jarayon muammolari bilan bog'liq holda olimlar, shoir va ijodkorlarning shaxs sifatidagi o'ziga xosliklari, yaratgan asarlarning tahlil va talqinlariga bag'ishlanadi.

3. Esse badiiy-publitsistika janrlaridan biri bo'lib, ijodkor obrazi yaratilishining haqqoniyligi, publitsistning davr, voqelik, jamiyat va inson, hayot, adabiy jarayon muammolari haqidagi muhokamalari, falsafiy mushohadalari tasviriy manzaralar orqali aks ettiriladi, muallif shaxsiyati, uning ma'naviy-intellektual qiyofasi tasvirga olinadi. Esse badiiy-publitsistik uslubning asosiy masalalarini yorituvchi janr bo'lib, til va ifoda uslubidagi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi.

4. Adabiy-tanqiy yo'nalishdagi esselarda yozuvchi ijodiy faoliyatini ilmiy-nazariy yo'nalishda yoritish hamda ijod laboratoriyasi tahliliga keng urg'u berish, insoniy kechinmalar ifodasi, obrazli tafakkur haqida tasavvur hosil qilishda ko'maklashadi.

5. Abdusaid Ko'chimov esselarida peyzaj va adabiy portretga alohida e'tibor qaratadi va bu ijodkorning poetik tahlilda o'ziga xos yondashuvini ko'rsatadi. "Hayqiriq" essesida ijodkor Azim Suyun badiiy olamining o'ziga xosligi, tabiat va inson munosabatlarining ijod jarayoniga ta'siri, "Qovurdoq" essesida yozuvchi badiiy niyati, kayfiyati tabiat hodisalariga bog'liq tarzda tasvirlanishi qayd etildi. Esse tarkibida qahramon ruhiyatini ochib berish uchun bahor fasliga oid detallar va peyzajdan unumli foydalanish, "Buni hayot deydilar" essesining prolog qismida o'zbek prozasini yuksakda parvoz qilayotgan bir qush desa, O.Yoqubov bilan P.Qodirovni uning ikki qanotiga o'xshatilishi adibning badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanishidan dalolat beradi.

6. "Tezoqar sokin daryo" essesida adib Pirmat Shermuhammedovning adabiy jarayondagi faolligi va publitsistika sohasidagi faoliyati, "Yaxshilik g'olibdir, yaxshilik g'olib" nomli essesida Shukrullo Yusupov badiiy qarashlari, ijod olami, insoniy fazilatlarini keltirishi A.Ko'chimovning ijodiy portret yaratishdagi yangi bir qirrasi hisoblanadi.

7. Abdusaid Ko'chimov esselarida yozuvchi va shoirlar siymosining aks ettirilishi, hayotiy qarashlarining asarlarida keltirilishi, yozuvchi ijod laboratoriyasi tasviri haqida xulosalar chiqarishga ko'maklashadi. "Men shoirman, istasangiz shu" nomli esseda shoir Abdulla Oripov faoliyatining betakror jihatlari qalamga olingan bo'lib, esse janri yozuvchi va ijodkorlar siymosini teran aks ettiruvchi janr ekanligini A.Qahhor, M.Shayxzoda, Shukrullo, Oybek ijodi va shaxsiga oid esselar misolida ko'rish mumkin.

8. "Samarqand xayoli" essesida Xurshid Davronning yurtga munosib haqiqiy farzand, vatanparvarlikka to'la qalbi millat uchun muhim bir o'rnak ekanligi, ijodida o'zbek farzandiga monand dunyoqarashni ko'rish mumkin. Tarixiy qahramonlar yaratishda ideallashtirish jarayoniga yondashuv X.Davronning Navoiy va Bobur siymolarini aks ettirishda muhim omil ekanligi qayd etildi. Erkin Vohidovning shoirlik, tarjimonlik, mumtoz adabiyot namunalarini yangilash yo'lidagi sa'y-harakatlari haqidagi ijodiy jihatlari keltirib o'tildi. Yozuvchining mumtoz adabiyot

CamScanner

namunalari asosida shakllangan betakror ijodi shaxsiy kamolotida ham muhim ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

9. Ijodkorlar badiiy siymosini yaratishda biografik metodning ahamiyati, esselarda yozuvchi, shoir dunyoqarashi, ichki kechinmalari, ruhiy holati ifodasida biografik tamoyil muhim ekanligi qayd etildi.

Muhammad Ismoil ijodidagi safar taassurotlari aks ettirilgan esselar hamda ularda ijodkor siymosining badiiy talqini; O.Yoqubov, Shukrullo, A.Ko'chimov kabi ijodkorlarning faoliyatida davr va shaxs masalasi, yozuvchi ijodiy kamoloti tahlilga tortildi. Xotira-esselarda ijodkorlarning istiqlol yillaridan keyingi ijoddagi erkinligi, esselarida insoniy tuyg'ularning ulug'langani haqidagi fikrlar umumlashtirildi.

10. Ahmad A'zam esselari badiiyatida publitsistik ruhning ustuvorligi, mavzu rang-barangligi va insoniy kechinmalar tasviri esselar tarkibiga kiritilishi yozuvchining esse janrida yangicha uslubda ijod qilganligidan darak beradi. A.A'zam esselaridagi fikrlar ijodkorlar siymosini ochishga emas, aksincha, essenavisning shaxs sifatidagi olamini badiiy kashf etishga xizmat qilganligi, poetik tasvirlar orqali yozuvchini ham tilshunos, ham tanqidchi sifatidagi faoliyatini ko'rish mumkin. Ijodkor esselaridagi aynan shu xususiyat tahlillar jarayonida dalillandi.

CamScanner

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE

KAZAKOVA GULASAL KURALOVNA

LITERARY INTERPRETATION OF POETS' AND WRITERS' IMAGES IN ESSAYS FROM THE INDEPENDENCE PERIOD

10.00.02 — Uzbek literature
(Uzbek literature of the 20th century and the current literary process)

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

CamScanner

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.PhD/Fil4802.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, and Russian (resume)) on the Scientific Council's website (www.tsuull.uz) and on the "ZiyoNet" Information and Education Portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Kahramonov Kurdosh Yalgashevich** Doctor of Philological sciences, professor
Official opponents:	**Kuvvatova Dilrabo Khabibovna** Doctor of Philological sciences, professor
	Kuchkarova Marhabo Khudayberganovna Doctor of Philological sciences, professor
Leading organization:	**Samarkand State University**

The defense of the dissertation will take place on "14" may 2025 at 16⁰⁰ hours at a meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available an the Information and Resource Center of the Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under the number 353). Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44. www.tsuull.uz.

The dissertation author's abstract is distributed on "2" may 2025.

(registry record No. 01 dated "02" [illegible] 2025).

H.A.Dadaboyev
Chairman of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

K.U.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

N.A. Jabborov
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In the field of world literary studies, there is extensive research on the epic genre and its subgenres, including contemporary interpretations of works created in the essay format and the distinctive features of essays. Modern literary criticism is focusing on new analyses and investigations of the general theoretical issues in essay writing. It is observed that essayists, as representatives of their time and typical members of their environment, are expected to reflect the leading principles of their era in their work and portray universal human values, which has been established as a predominant concept in the field.

In exemplary scientific works of world literary studies, one can observe that the creator's poetic world is intricately linked with the concept of personality. Various components such as plot and composition, conflict and character, language and style of the literary work are examined from the perspective of poetic mastery. The most significant aspect here is the increased attention to character portrayal in essay poetics, stylistic individuality, and the necessity of understanding the creator's image reflected in these elements. Studying the poetics of a creator and analyzing the writer's creative process in the making of a work has become one of the pressing issues in the field.

In Uzbek literary studies, research on this genre typically categorizes essays into philosophical-aesthetic, literary-critical, historical-biographical, socio-political, literary-journalistic, and memoir-essays based on their content and essence. It is worth noting that essays created during the period of independence have predominantly focused on historical-biographical, socio-political, and philosophical content. "I believe that studying and promoting Uzbek classical and modern literature on an international scale, analyzing this multifaceted topic in close connection with the most significant processes occurring in today's global literary landscape, drawing necessary scientific and practical conclusions, and defining our future tasks are of great importance"[35]. The pursuit of the future begins with love for the past. In the development of the current literary process and journalism, it has become relevant to analyze the unique world of writers and poets as creators, using the possibilities of the essay genre. This analysis encompasses their maturity as individuals who have endured the spiritual and psychological impacts of different eras, as well as the distinctiveness of their character as an integral part of their creative work.

This research serves, to a certain extent, the practical implementation of tasks outlined in the following decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan: - Decree No. UP-5847 of October 8, 2019 "On Approving the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" - Decree No. UP-60 of January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" - Decree No. UP-158 of September 11, 2023 "On the Strategy "Uzbekistan-2030" - Resolution No. PP-2995 of May 24, 2017 "On Measures for Further Improvement of the System of Preservation, Research, and Promotion of Ancient Written Sources" - Resolution No. PP-3271 of September 13, 2017 "On the

---

[35] Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya to'plamidan. – Toshkent, 2018. 7-avgust.

CamScanner

Program of Comprehensive Measures for Developing the System of Publication and Distribution of Book Products, Enhancing and Promoting Reading Culture" It also aligns with the tasks set out in the report "Development of Literature, Art, and Culture - a Solid Foundation for Enhancing the Spiritual World of Our People", as well as other relevant regulatory legal documents in this field.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the Republican Scientific and Technological Development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state".

The extent of study of the problem. In world literary studies, the essay and its development, as well as its specific features as a genre, have been studied in monographic studies by researchers such as T.M. Stepanova, A.A. Tertichny, Sh. Saint-Bev, R.Wellick, O. Warren, M.M. Bakhtin, A. Camus, G.N. Pospelov, L.Ginzburg, Y. Borev, M. Epstein, E.Y. Fesenko[36].

While O.Sharafiddinov[37] clarified such issues as the poetic characteristics of fiction, the creative method, and the concept of personality, scholars such as M. Qoshjonov, H. Karimov, U. Normatov, B. Nazarov, A. Rasulov, N. Rahimjonov, B.Karimov, Q. Yuldoshev, Q.Qahramonov, M.Qochqorova and A.Ulugov presented scientific and theoretical conclusions on the uniqueness of the nature of the essay, the characteristics of the genre, the methodological differentiation of the genre in Uzbek literature, the phenomenon of the creator and poetic analysis.

During the years of independence, scientific research was conducted on the genesis of the essay genre, its development trends, specific ups and downs of the essay genre in the activities of creators and critics, and its recognition as a genre in the literary and critical direction[38]. This topic is one of the current issues being actively studied in

---

[36] Степанова Т.М. Литературная критика и публицистика русского зарубежья. Мотивы. Тенденции. Имена. 2-е изд. переработанное и дополненное. – Майкоп: ЭлИТ, 2016; Тертычный А.А. Интернет-публицистика: жанровый профиль. Ученые записки Казанского университета. Гуманитарные науки. Том 156. – М., 2014; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – М.: Художественная литература, 1970; Уеллик Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978; Фесенко Э.Я. Теория литературы. – А.: Поморский государственный университет, 2001; Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Камю А. Творчество и свобода. Статьи, эссе и записные книжки. – М.: Радуга, 1990; Поспелов Г.Н. Введение в литературоведение. – М.: Просвещение, 1983; Гинзбург Л.Я. Записные книжки. Воспоминания. Эссе. – СПб.: Искусство, 2002; Борев Ю.Б. Эстетика. – М.: Наука, 1987; Эпштейн М.Н. Парадоксы новизны: О литературном развитии XIX-XX веков. – М.: Советский писатель, 1988.

